



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2017 yil 1 iyul holatiga


2017 yilning 1 iyul holatiga Xorazm viloyatida jami ro'yhatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 14448 taga etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 778 taga ko'pdir (5,7%).

Shuningdek, faoliyati ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 13958 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan hamda ularning soni 794 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16 ta (3,2 %) ga kamaygan hamda ularning umumiy soni 490 tani tashkil etgan.


Shu bilan birga 2017 yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni 1035 taga etib, tugatilganlar soni 740 taga kamligi va ularning umumiy soni 475 ta ekanligi kuzatilmoqda.

## Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2017 yil yanvar-iyun oylarida 1035 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 35,5 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (299 ta), Xiva tumani (162 ta), Urganch (114 ta) va Xonqa tumanlarida (92 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (27 ta), Bog'ot (31 ta) hamda Shovot (36 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda




Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi sanoat ( 283 ta), savdo (232 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (129 ta) va qurilish (86 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (20 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (27 ta) hamda tashish va saqlashda (39 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2017 yil 1 iyul holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 47 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 13 taga yoki 38,2 % ga o'sgan. Bundan tashqari 2017 yil yanvar-iyun oylarida 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangidan tashkil topgan. Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'radigan bo'lsak sanoatda – 5 ta, savdo, qurilish hamda qishloq va o'rmon xo'jaligida-1 ta dan tashkil topgan.


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning tumanlar kesimidagi soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2017 yil 1 iyul holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10990 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2016 yil 1 iyul holatiga qaraganda 7,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2762 tasi (25,1 %) Urganch shahriga, 2285 tasi (20,8 %) Xiva, 1135 tasi (10,3 %) Urganch tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10990 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3302 tasi (28,5 %) – savdoda, 2165 tasi (18,7 %) - sanoatda, 1385 tasi (11,9 %) - qurilishda, 1050 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 740 tasi (6,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 520 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 211 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 208 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1409 tasi (12,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2017 yil yanvar-iyun oylarida 993 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2016 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 37,5 % ga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Urganch shahrida (277 ta), Xiva (162 ta), Urganch tumanlarida (111 ta), tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (25 ta), Bog'ot (31 ta) hamda Shovot (34 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (282 ta), savdoda (232 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (128 ta) va qurilishda (86 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (20 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (27 ta), tashish va saqlashda (39 ta) hamda yashash va ovqatlanishda (85 ta) tashkil etilgan.

## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2017 yilning 1 iyul holatiga 781 tani tashkil etib, ulardan 762 tasi yoki 97,6 % faoliyat yuritadi.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**  
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona dav-  
lat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan